



HUMAN–NATURE HARMONY: SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS

Khakimakhon Muxiddinova

Senior Lecturer, Namangan State Technical University

kh.mukhiddinova@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecological consciousness, ecological culture, sustainable development, human–nature relationship, philosophical analysis, axiology, environmental ethics, environmental justice, green economy, ecological balance, socio-philosophical approach, natural resources, ecological responsibility, cultural heritage.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article examines contemporary socio-philosophical interpretations of the relationship between humans and nature, the formation of ecological consciousness, and the moral dimensions of sustainable development. In the context of the global environmental crisis, the human attitude toward nature is no longer merely a technical or economic issue; it has become a philosophical category that determines the fundamental essence of human values, ethics, and worldview. The depletion of natural resources, climate change, biosphere degradation, and issues of environmental justice call for a new way of thinking, new forms of responsibility, and a renewed cultural approach from humanity.

INSON VA TABIAT UYG‘UNLIGI: EKOLOGIK ONGNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

Xakimaxon Muxiddinova

Namangan davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

kh.mukhiddinova@mail.ru

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ekologik ong, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, inson–tabiat munosabati, falsafiy tahlil, aksiologiya, ekologik etika, ekologik adolat, yashil iqtisodiyot, ekologik muvozanat, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, tabiiy resurslar, ekologik

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talqini, ekologik ongning shakllanishi hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarining ma’naviy mazmuni tahlil qilinadi. Global ekologik inqiroz sharoitida

mas'uliyat, madaniy meros.

tabiatga nisbatan munosabat faqat texnik yoki iqtisodiy masala emas, balki inson qadriyatlarini, axloqi va dunyoqarashining tub mohiyatini belgilovchi falsafiy kategoriyaga aylanmoqda. Tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi, biosfera degradatsiyasi va ekologik adolat muammolari insoniyatdan yangi tafakkur, yangi mas'uliyat va yangi madaniy yondashuvni talab qilmoqda.

ГАРМОНИЯ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

Хакимахон Мухиддинова

Старший преподаватель

Наманганского государственного технического университета

kh.mukhiddinova@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экологическое сознание, экологическая культура, устойчивое развитие, отношение человек–природа, философский анализ, аксиология, экологическая этика, экологическая справедливость, зелёная экономика, экологическое равновесие, социально-философский подход, природные ресурсы, экологическая ответственность, культурное наследие.

Аннотация: В данной статье анализируются современные социально-философские интерпретации взаимоотношений человека и природы, формирование экологического сознания, а также духовное содержание идей устойчивого развития. В условиях глобального экологического кризиса отношение к природе становится не просто технической или экономической проблемой, но превращается в философскую категорию, определяющую сущностные аспекты человеческих ценностей, морали и мировоззрения. Сокращение природных ресурсов, изменение климата, деградация биосферы и проблемы экологической справедливости требуют от человечества нового мышления, новой ответственности и обновлённого культурного подхода.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat tafakkurining eng keskin sinoviga aylanmoqda. Masala faqat iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning qisqarishi yoki chiqindilar hajmining ortishi emas. Bu, avvalo, inson ongining, uning ma'naviy mas'uliyati va qadriyatlar tizimining zaiflashuvi masalasidir. Tabiatga befarqlik aslida insonning o'z borlig'iga befarqligi, o'zining inson sifatidagi mas'uliyatini unutishi bilan chambarchas bog'liq.

Shu ma'noda ekologik inqiroz – bu nafaqat tabiiy tizimlar, balki axloqiy va falsafiy tizimlarning ham inqirozidir.

So'nggi o'n yilliklarda barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat va “yangi ekologik tafakkur” konsepsiyalari global kun tartibining markaziy masalalaridan biriga aylandi. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” dasturi, YUNESKOning “Ekologik ta'lim” tashabbuslari, Yevropa Ittifoqining “Green Deal” loyihasi – bularning barchasi insoniyatni tabiatga munosabatini ildizdan qayta ko'rib chiqishga, ekologik ongni yangi bosqichga ko'tarishga undamoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston ham mazkur jarayonning faol ishtirokchisi sifatida “Yashil o'sish strategiyasi – 2030”, “Yashil makon” umumxalq harakati, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi orqali ekologik barqarorlikni milliy taraqqiyot mafkurasining ajralmas qismiga aylantirmoqda. Biroq bu jarayonlar faqat texnik va institutsional islohotlar darajasida qolsa, kutilgan natijani bermaydi. Chunki tabiatni saqlash – qonunlar emas, ong orqali amalga oshadigan jarayondir.

Shu bois ekologik muammolarga faqat iqtisodiy, siyosiy yoki texnologik nuqtai nazardan emas, balki ontologik va aksiologik – ya'ni borliq va qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashish zarur. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni falsafiy tahlil qilish, ekologik ongni jamiyat ma'naviy dunyosining ajralmas qismiga aylantirish bugungi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, jamiyatning haqiqiy barqarorligi texnik yutuqlarda emas, balki inson tafakkuri uyg'unligida, ekologik mas'uliyat va axloqiy uyg'unishda namoyon bo'ladi.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi dialektik munosabatlar qadimdan falsafaning markaziy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Avesto, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar merosida inson va tabiat uyg'unligi, ularning o'zaro mas'uliyati, tabiatning tartibli, aqlga asoslangan tizim sifatida tushunilishi masalalari chuqur aks etgan. Bu g'oyalar bugungi ekologik falsafa uchun muhim metodologik poydevor vazifasini o'taydi[1, 80].

XX asrda ekologik muammolar global tus olgach, ekologik tafakkurning falsafiy tahlili ham alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Martin Heideggerning “borliqni unutish” haqidagi tanqidlari, Hans Jonasning mas'uliyat etikasi, Edgar Morin va boshqa zamonaviy faylasuflarning murakkab tizimlar, biosentrizm va ekosentrizm haqidagi qarashlari ekologik ongni falsafiy kategoriyaga aylantirdi. Inson tabiatga shunchaki “resurslar ombori” sifatida emas, balki o'z mavjudligining sharti sifatida qarashi zarurligi ta'kidlandi.

MDH mamlakatlari faylasuflarining ishlarida ham ekologik ong, inson ekologiyasi, barqarorlik va madaniyat dialektikasi masalalari chuqur tahlil qilingan. V. I. Danilov-Danilyan,

N. Berdyayev, A. Nysanbayev, A. Kayumov va boshqalar barqarorlikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ma'naviy-axloqiy taraqqiyot, madaniy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadilar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ekologik falsafa, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish muammolariga bag'ishlangan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar ko'payib bormoqda. N. H. Hakimov, M. I. Ismoilov, Z. R. Qodirova, T. To'laganov, I. Rustamov, R. Sobirov, S. Mamashakirov va boshqa tadqiqotchilar ekologik madaniyat, ekologik qadriyatlar tizimi, yashil tafakkur va ekologik xavfsizlikning ma'naviy mazmunini tahlil qilganlar. Shuningdek, Sh. B. Samanova, A. J. Muxammadiyarova, A. B. G'ulomov, O'. G'. Tilavovlar dissertatsiyalarida ekologik muvozanat, barqarorlik va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik turli ijtimoiy-falsafiy jihatlarida yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Uchinchi Renessans konsepsiyasi, yashil iqtisodiyot, ekologik tafakkur evolyutsiyasi va barqaror rivojlanish strategiyasining falsafiy-metodologik asoslari o'rtasidagi kompleks dialektik bog'liqlik hali yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ayniqsa, Uchinchi Renessans g'oyalarini ekologik ong, madaniyat va iqtisodiy tafakkur transformatsiyasi bilan integratsiyalash masalasi chuqur falsafiy asos talab qiladi. Shuningdek, polietnik jamiyat sharoitida ekologik tafakkurning milliy-ma'naviy negizlari, yashil iqtisodiyotning bioenergetik modernizatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashuvi kam o'rganilgan.

Uchinchi Renessans konsepsiyasi odatda ilm-fan, texnologiya, ma'rifat va madaniyatning yangi yuksalish davri sifatida talqin qilinadi. Biroq bugungi ekologik inqirozlar sharoitida bu konsepsiyani ekologik tafakkur bilan integratsiyada ko'rish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Birinchi Renessans inson tafakkurini diniy dogmalardan ozod qilgan bo'lsa, ikkinchi Renessans insonni ilm va tafakkur markaziga qo'ygan edi. Uchinchi Renessans esa insonni tabiat bilan bir butun mavjudot sifatida qayta anglash, uning borliqqa munosabatini tubdan o'zgartirish zarurati bilan bog'liq.

Ekologik tafakkur bu yerda oddiy "ekologik bilimlar majmui" emas, balki dunyoni idrok etishning yangi shakli, borliqni his etishning yangi darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday tafakkurda tabiat "resurs" emas, balki hamnafas mavjudot; inson esa "xo'jayin" emas, balki javobgar hamrohdur. Tabiatga nisbatan bunday axloqiy-estetik munosabat ekologik madaniyatni inson tafakkurining yangi bosqichi sifatida namoyon etadi[2, 74].

Uchinchi Renessans poydevorini ekologik tafakkur bilan bog'lash shuni anglatadiki, taraqqiyot faqat texnik yutuqlar, urbanizatsiya yoki iqtisodiy o'sish bilan emas, balki "inson – jamiyat – tabiat" tizimidagi uyg'unlik darajasi bilan o'lchanishi lozim. "Hayot markazida bo'lgan dunyo" konsepsiyasi aynan shu yerda falsafiy mazmun kasb etadi.

Ko'p yillar davomida taraqqiyot ko'proq iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmi, infratuzilma kengayishi bilan o'lchab kelindi. An'anaviy iqtisodiy modelda tabiat asosan xomashyo manbai sifatida ko'rildi, inson esa iste'molchi va egallovchi pozitsiyasida qoldi. Natijada iqtisodiy manfaatlar ekologik barqarorlik va axloqiy mezonlardan ajralib ketdi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi aynan shu paradigmani qayta ko'rib chiqishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot bu – ekologik ong bilan yo'g'rilgan iqtisodiy tafakkur bo'lib, iqtisodiy o'sishni ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatdan ajratmaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejankor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, “nol chiqindi” (zero waste) modeli, “yashil” infratuzilma – bular bu konsepsiyaaning tashqi texnik ko'rinishlaridir.

Ichki mohiyat esa shundaki, inson tabiatni ekspluatatsiya obyektidan hamkorlik subyektini sifatida qayta kashf etadi. Yashil iqtisodiyot shu ma'noda iqtisodiy kategoriya bo'lishdan chiqib, axloqiy va ontologik kategoriya darajasiga ko'tariladi. Taraqqiyot mezonini sifatida nafaqat YAIM o'sishi, balki ekologik barqarorlik, avlodlararo mas'uliyat va ekologik adolat tushunchalari ham ilgari suriladi.

Ekologik adolat masalasi ham yangi falsafiy e'tibor markaziga chiqmoqda. Atrof-muhit degradatsiyasi, resurslar tanqisligi odatda jamiyatning eng zaif qatlamlariga – kambag'al hududlar, chekka qishloqlar, ijtimoiy himoyasiz guruhlar zimmasiga ko'proq yuk bo'ladi. Demak, ekologik siyosat nafaqat texnik standartlar, balki ijtimoiy tenglik, hududlararo adolat masalalarini ham qamrab olishi zarur.

Shu nuqtada fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, ekologik yo'nalishdagi nodavlat notijorat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat ekologik qonunlar va dasturlarni qabul qilishi mumkin, ammo bu hujjatlarning jamiyat ongiga singishi, hatti-harakatga aylanishi uchun “ko'prik” zarur. “Yashil makon”, “Toza tabiat”, “Ekologik madaniyat” kabi tashabbuslar ekologiyani biologik muammo emas, balki ma'naviy javobgarlik masalasi sifatida yoritishga xizmat qiladi[3, 38].

Ekologik madaniyat – inson tafakkurining yangi bosqichi bo'lib, dunyoni faqat “foйда” mezonini bilan emas, balki hayotning muqaddasligi mezonini bilan baholashni talab qiladi. Bu madaniyat insonni “men yashayman” darajasidan “men boshqalar bilan, tabiat bilan birga yashayman” darajasiga ko'taradi. Ekologik madaniyat – bu borliqqa nisbatan mas'uliyatli, ehtiyotkor va estetik munosabatdir.

Polietnik jamiyat sharoitida ekologik tafakkur yana ham murakkab, ammo boy mazmunga ega. Turli millatlar, diniy va madaniy an'analarda tabiatga nisbatan qarashlar xilma-xil bo'lsa-da, ularning umumiy jihati – tabiatni qadrlash, isrofgarchilikdan qaytarish, me'yorni saqlash

g'oyalaridir. O'zbek xalq og'zaki ijodida suv, yer, daraxt, tog' va o'rmon timsollari muqaddaslik, baraka, hayot ramzi sifatida talqin qilinadi[4, 41].

Islom ta'limotida ham tabiat Allohning "oyati" – ko'rinadigan alomati sifatida talqin qilinadi. "Yer yuzida fasod qilmanglar" mazmunidagi oyatlar, daraxt ekishni sadaqa darajasiga ko'targan hadislar tabiatga zarar yetkazishni nafaqat ekologik, balki axloqiy buzilish sifatida baholaydi. Bu g'oyalar zamonaviy ekologik etikani milliy-ma'naviy asoslar bilan bog'lash imkonini beradi.

Demak, ekologik madaniyat milliy o'zlikdan uzilgan holda emas, balki tarixiy-madaniy meros bilan integratsiyada rivojlanishi lozim. "Yashil makon" konsepsiyasi ham aynan shu uyg'unlikni ifodalaydi: daraxt ekish bu yerda agrotexnik amal emas, kelajak avlodga bo'lgan ma'naviy javobgarlik ramziga aylanadi[5, 34–39].

Shaxs ekologik madaniyati faqat bilimlar yig'indisi emas, balki e'tiqod, axloqiy pozitsiya, hayot tarzi va fuqarolik mas'uliyatining yaxlit birligidir. Shu ma'noda, ekologik ta'limning innovatsion shakllari – ekomentorlik, volontyorlik, interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, STEAM asosidagi darslar – ekologik ongni real hayotiy tajriba darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 18-25 yoshli respondentlarning katta qismi yashash hududidagi ekologik muammolarni anglaydi va ularning yechimi borligiga ishonadi. Shu bilan birga, bir qismi ekologik axborotning yetarli emasligini, ekologik tashabbuslarning amaliy samarasi pastligini ta'kidlaydi. Bu esa ekologik ta'limni yanada chuqurlashtirish, uni formal darajadan real fuqarolik tajribasi darajasiga olib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Bioenergetik modernizatsiya – chiqindilar va tabiiy resurslardan energiya olishning ekologik xavfsiz shakllarini joriy etish – ham ekologik tafakkur transformatsiyasining muhim yo'nalishidir. Turli mamlakatlarda "chiqindisiz jamiyat" tajribalari, chiqindidan energiya olish tizimlari, "nol chiqindi" kontekstidagi shaharlar modeli nafaqat texnik, balki falsafiy xulosaga olib keladi: inson faqat iste'molchi emas, balki qayta tiklovchi, javobgar mavjudot sifatida o'z rolini anglay boshlamoqda [6, 45–47].

O'zbekiston sharoitida bu tajribalarni ko'chirib qo'yish emas, balki mahalla, isrofgarchilikdan qaytaruvchi diniy-axloqiy qadriyatlar, "bir tup daraxt – bir umr savob" kabi tasavvurlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Shunda ekologik modernizatsiya faqat loyiha darajasida emas, balki turmush tarzi darajasida qaror topadi.

Olib borilgan falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ekologik inqirozlar mohiyatan inson tafakkuridagi, qadriyatlar tizimidagi nomutanosiblikning ifodasidir. Yashil

iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, “Yashil makon” va boshqa tashabbuslar muvaffaqiyati ularning texnik va institutsional tomonlaridan ko‘ra, ekologik ong va ekologik madaniyatning qay darajada shakllanishiga bog‘liq.

Xulosa. Haqiqiy taraqqiyot – iqtisodiy o‘rish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatning uyg‘unligidir. Aynan mana shu uyg‘unlikni ta‘minlay oladigan ekologik tafakkur va yashil iqtisodiy ong Uchinchi Renessans g‘oyalarining amaliy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Tabiatni asrash – hayotni asrash, hayotni asrash esa insonning o‘zini, o‘z kelajagini asrash demakdir. Shu ma’noda ekologik tafakkur – bu nafaqat ekologik siyosatning, balki yangi ma’naviy uyg‘onish davrining ham markaziy kategoriyasiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xakimov N., Ismoilov M.I., Mamajonov S., To‘laganov T. Ekologik madaniyat va falsafa. – Toshkent: Fan, 2022. – 180 b.
2. 201. Xidoyatov N. Ekologik muvozanat va huquqiy davlat falsafasi. –T.: Fan. 2021. –B. 74.
3. Tursunova M. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya: ko‘p tillilik yondashuvi. // Ta’lim innovatsiyalari. –2022. –№4. –B. 38–43.
4. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. –Ташкент: УЗНЕ. 2006. – С. 41.
5. Mamatqulov B. Polietnik jamiyatlarda ekologik ong shakllanishining falsafiy asoslari. // Milliy tiklanis va madaniy taraqqiyot. –2022. №2. – B. 34–39.
6. Mirsaidov R. Ekologik gumanizm: nazariy asoslar.–Toshkent: Ma’naviyat. 2022. –B. 45–47.